

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI VATAN KONSEPTIGA OID AFORIZMLARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Masadiqova Xilola Baxromovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi **vatan** **homeland** konseptiga oid aforizmlar chog'ishtirma-lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda aforizmlarda vatan tushunchasining semantik xususiyatlari, baholovchanlik darajasi, metaforik ifodasi hamda milliy mentalitet bilan bog'liqligi aniqlanadi. Ingliz aforizmlarida vatan konseptining ko'proq falsafiy va individualistik ruhda ifodalanishi, o'zbek aforizmlarida esa uning muqaddaslik, tarixiy xotira va jamoaviy mas'uliyat bilan bog'lanishi ilmiy misollar asosida yoritiladi.

Abstract. This scientific article analysis of aphorisms related to the concept of homeland in the English and Uzbek languages are analyzed from a cross-linguistic-cultural point of view. In the study, the semantic characteristics of the concept of homeland in aphorisms, the level of appreciation, metaphorical expression, and the connection with national mentality are determined. In English aphorisms, the concept of homeland is expressed in a more philosophical and individualistic spirit, and in Uzbek aphorisms, its connection with sanctity, historical memory and collective responsibility is highlighted on the basis of scientific examples.

Kalit so'zlar: vatan konsepti, aforizm, lingvokulturologiya, chog'ishtirma tahlil, mentalitet, baholovchanlik.

Key words: concept of homeland, aphorism, linguistic and cultural studies, cross-sectional analysis, mentality, appreciation.





Vatan 1) kishilarning tugʻilib oʻsgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, oʻziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmui. Vatan ona kabi yagona, muqaddas. Vatan oldidagi qarzдорlik tuygʻusi, masʼuliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon boʻladi. 2) biror narsaning, masalan, oʻsimlikning yuzaga kelgan joyi . *Vatan* leksemasini paremiologik birliklarda aks etishini oʻrganish orqali xalqning vataniga boʻlgan muhabbati va etnosning lingvomadaniyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz va oʻzbek tili paremiologiyasida *Country/vatan* mazmuni bilan bogʻliq aforizmlar talaygina. Misollarga murojaat qiladigan boʻlsak, Amerikalik huquqshunos, davlar arbobi, sobiq 16-prezidenti (4-mart, 1861 – 15-aprel, 1865) Abraham Linkoln (Abraham Lincoln) ning quyidagi hikmatli soʻzlari: *Every good citizen makes his country's honor his own, and cherishes it not only as precious but as sacred. He is willing to risk his life in its defense and is conscious that he gains protection while he gives it*¹. (Har bir yaxshi fuqaro oʻz yurti shaʼnini oʻz qadriga yetadi, uni nafaqat aziz, balki muqaddas deb biladi. U oʻz hayotini himoya qilishda oʻz hayotini xavf ostiga qoʻyishga tayyor va u himoya qilishda himoyaga ega ekanligini biladi).

Ushbu hikmatli soʻzda vatan muqaddas sanalib hayotini havf ostiga quyib boʻlsa ham uni himoya qilishi kerakligi taʼkidlanib, har bir fuqaroni vataniga sodiq va vatanparvar boʻlishiga dawat qilingan.

Alisher Navoiy (Nizomiddin mir Alisher navoiy) – 1441-1501-yillarda yashab ijod qilgan buyuk oʻzbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobining ushbu *Inson tirik ekan oʻz vatani uchun kurashmogʻi lozim*² hikmatli durdonasida inson uchun vatanni muqaddas ekanligi uni koʻz qorachigʻiday asrashi tomiridagi soʻngi qoni qolguncha uni himoya qilishi kerakligi taʼkidlangan.

¹ <https://www.brainyquote.com>

² Фозилов М. Ҳикматли сўзлар, афоризмлар ва мақоллар. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1967. – Б. 69.



Amerikalik siyosatchi, faylasuf **Tomas Peyn** (Thomas Paine) ning ushbu *The World is my country, all mankind are my brethren, and to do good is my religion*³. (Dunyo mening yurtim, butun insoniyat mening birodarlarim, yaxshilik qilish mening dinimdir) aforizmidagi butun dunyo insoniyatni uyi va unda istiqomat qiluvchi barcha bir-biriga og'a-ini ekanligi izohlanib, mehr-oqibatli bo'lish hamda bir-biriga ko'maklashish lozimligi tushuntirilgan.

Buyuk shoir **Abulqosim Firdavsiy**ning Yerimiz, suvimiz, farzandimiz deb, Xotin, bola-chaqa, dilbandimiz deb, Birma-bir jonimiz etamiz fido, Vatanni dushmanga bermaymiz aslo⁴! - hikmatida vatan tuyg'usi barcha narsadan ustun qo'yilganini kuzatish mumkin. Vatan himoyasi uchun jonini ham ayamasi ta'kidlanib, vatan ozodligi ilgari surilib insonni vatanparvarlikka davat etilgan.

Faylasuf Xoja Samandar Termizining ushbu *Vatanni tark etmok xazil ish emas, Bu ish uchun har kim tob beravermas! Judolik daraxtdir bargi yo'k. yolgiz, Bargi bo'lsa hamki, ammo mevasiz. Bugun ayrilikdan yuragim giryon, Aziz yerni qo'ldan chiqarib hayron. Na ko'zda uyqu bor, na dilda rohat, Azob o'ti barin aylamish gorat*⁵! hikmatli so'zlarida vatanni tark etishni yomon oqibatlari vatanni tark etgan kimsaday ahvolga tushib qolishi izohlanib, insonlarni vatanni tark etmaslikka undalgan.

Shuningdek, quyidagi ingliz **Abraham Lincoln, Thomas Paine, George S. Patton, Andrew Jackson James, Monroe William Cowper**lar kabi qomusiy olim, adiblarning hiqmatli so'zlarida ham vatan tushunchasini naqadar oliy ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Inglizcha: *One country, one constitution, one destiny* (Bir davlat, bitta konstitutsiya, bitta taqdir). – **Daniel Webster**.

Inglizcha: *We didn't become the most prosperous country in the world just by rewarding greed and recklessness. We didn't come this far by letting the special*

³ <https://www.forbes.com/quotes/9313>

⁴ Фозилов М. Ҳикматли сўзлар, афоризмлар ва мақоллар. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 1967. – Б.70.

⁵ <https://hikmatlar.uz/>

interests run wild. We didn't do it just by gambling and chasing paper profits on Wall Street. We built this country by making things, by producing goods we could sell (Biz faqat ochko'zlik va beparvolikni mukofotlash bilan dunyoning eng gullab-yashnagan davlatiga aylanganimiz yo'q. Biz maxsus manfaatlarni yo'q qilish orqali bu qadar uzoqqa bormadik. Biz buni faqat qimor o'ynash va Uoll-stritda qog'oz daromad quvish orqali qilmadik. Biz bu mamlakatni narsalarni ishlab chiqarish, sotishimiz mumkin bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish orqali qurdik). – **Barack Obama.**

Yusuf Xos Hojib, Nozim Hikmat, M. Fuzuliy, Hazrat Pahlavon Mahmud, Haydar Xorazmiy, Jomiy, Najmiddin, Kubro, Kamol Xo'jandiy, Fitrat, Xurramiy, Bayoniy, Otoiy, Sidqiy Hondoylikni, Avloniy, Hayoliddin al-Hasaniy, Uvaysiy, Dilshodi Barno, Sayqaliy, Xurramiy, Xoja Samandar Termiziy, Bayoniy, Otoiy, Sidqiy Xondoyliqiy, Fitrat, Anbar Otin kabi yurtimizning qomusiy olim, adiblarning hiqmatli so'zlarida ham vatan tushunchasini naqadar oliy ekanligini kuzatishimiz mumkin.

1. *Vatan degani – faqat otalarning xoki qolgan joy emas. Mening uchun Vatan – odamni odam qilgan joydir.*
2. *Mening bitta hayotim bor, bordi-yu, mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda, hammasini ham Vatan uchun sarflagan bo'lur edim.*
3. *O'z yurtingda xalq ichida hizmatda bo'l, Hushyor bo'l, o'sal bo'lma, sezgir bo'l.*
4. *Vatan tarkini bir nafas aylama, Yana ranju g'urbat havas aylama.*
5. *Vatanni tark etuvchi har qanday kishi razillik qiluvchidir; Be vatan bo'lsang tikonni o'zisan.*
6. *Vatanning taqdiri undagi yoshlar tarbiyasiga bog'likligi kishilarni boshqarish san'ati to'g'risida fikr yuritadiganlarning xammasiga ma'lum.*
7. *Kishiga kuch tabiat tomonidan beriladi, vatan ravnaqi uchun xarakat – kalbdan va ilmdan, boylik esa ko'p holda oddiy tasodif tufayli qo'lga kiritiladi.*

8. *Vatan to'shlaridan bizga sut berar, Hayot ne'matidir bu shonli tuproq.
Quloq os onangga, ne o'git berar.*

Har ikki tilda vatan konsepti yuqori baholovchanlikka ega. Ingliz aforizmlarida vatan ko'proq **tanqidiy-falsafiy** yondashuvda ifodalanadi. O'zbek aforizmlarida esa vatan **muqaddas va axloqiy ideal** sifatida talqin qilinadi. Ingliz aforizmlarida individual fikr ustun bo'lsa, o'zbek aforizmlarida jamoaviy qadriyatlar yetakchi o'rin tutadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillaridagi vatan konseptiga oid aforizmlar umumiy g'oyaviy asosga ega bo'lsa-da, ularning semantik va lingvokulturologik talqini milliy mentalitet bilan belgilanadi. Ingliz tilida vatan konsepti tanqidiy va falsafiy ruhda ifodalansa, o'zbek tilida u muqaddas, tarixiy va axloqiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu xulosalar madaniyatlararo kommunikatsiya va qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фозилов М. Ҳикматли сўзлар, афоризмлар ва мақоллар. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1967. – 191 б.
2. Султонов Е. Афоризмлар [Матн]: минг йиллик дурдона фикрлар; Тошкент: Шарқ-Зиё Заковат, 2019. – 256 б.
3. Тафаккур тухфалари. Жалолиддин Румий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 245 б.
4. <https://www.brainyquote.com>
5. <https://hikmatlar.uz/>
6. <https://www.forbes.com/quotes/9313>